holda iqtisodiyotni rivojlantirib, xalq farovonligini ta'minlab kelinmoqda. Jahondagi innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bugungi kunlarda jadal sur'atlar bilan namoyon bo'lmoqda. Innovatsion iqtisodiyotning dinamik rivojlanish tendentsiyasi iste'molchilar talabini to'liqroq qondirish va iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarida mehnat unumdorligini yuqori darajada oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda jahonda 200 dan ortiq mamlakatlar reytingini baholash tashkilotlari mavjud bo'lib, shulardan eng nufuzlilardan biri – bu Global innovatsion indeks (The Global Innovation Index (GII)) hisoblanadi.

*Global innovatsion indeks* – bu mamlakatlarning innovatsion imkoniyat vako'rsatkichlari reytingidir. Bunda institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, kreditlar, investitsiyalar, kommunikatsiyalar mezonlariga asoslangan holda innovatsiyalar darajalari o'lchanadi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining e'tirof etishicha, *Global innovatsion indeks* – bu ulkan tadqiqot bo'lib, unda innovatsion rivojlanish darajasiga ko'ra dunyo mamlakatlari reytingi tuziladi. Demak, Global innovatsion indeks mamlakatlarning har yilio'zlarining qobiliyat va innovatsiyalardagi muvaffaqiyatlariga qarab tuziladigan reyting. Bu reyting odatda korporativ va hukumat tomonidan mamlakatlarning innovatsiyalarini o'zaro taqqoslash uchun foydalaniladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, GII reytingi ma'lum mezonlar asosida ishlab chiqiladi. Shu jumlada, jahon iqtisodiy rivojlanishiga hamohang tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan innovatsion rivojlanish Strategiyasining bosh maqsadi: "Inson kapitalini rivojlantirish"ga qaratiladi. Demak, Strategiya bosh maqsadiga erishishning natijasi sifatida 2030-yilga kelib, O'zbekistonning Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning kuchli 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishizaruriy shart qilib qo'yildi. Buni esa respublikamizning xalqaro maydondagiraqobatbardoshliligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etishini belgilovchi asosiy omil sifatida baholash va e'tirof etish mumkin.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi bo'yicha ushbu reytingning kuchli uchtalikka kirgan yetakchi davlati bo'ldi (Hindiston – 40, Eron Islom Respublikasi – 53 va O'zbekiston - 82). Muhimi biz Janubiy Osiyo mintaqasida o'tgan 2022-yilda 4 o'rinda edik, 2023-yilda Qozog'istonni ortda qoldirib TOP-3 ya'ni, kuchli uchlikning yangi ishtirokchisi,degan nomni oldi. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston hamon daromadlik darajasi bo'yicha o'rtachadan pastroq bo'lgan 36 ta davlatlarning ichida 10 o'rinda turibdi (Lower middle-income economies).

2023-yilda O'zbekiston innovatsiya ishlanmalari orqaliMarkaziy Osiyo davlatlari bo'yicha taqqoslaganda, ilk bor birinchi o'rinniegalladi (2022-yilda Qozog'iston – 79 o'rindan 83 o'ringa pastlagan, Qirg'iziston – 4 pog'ona yuqorilagan – 94 va Tojikiston esa bir pog'ona pastlagan –104). Demak, mamlakatimizda " 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'Zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, mazkur reytingda yanada yuqorilash imkoniyatini bermoqda. Chunki biz 2030-yilda ushbu reytingni kuchli 50 taligidan munosib joy egallashimiz kerak (oldindagi olti yil davomida kamida 32 pog'ona yuqorilashimiz talab etiladi).

**1-jadval.** Global innovatsion indeksi (*GII-2023*) reytingida O'zbekiston[1]

| Baholash darajasi (0-100) (Score) | O'rin (Rank) | Daromad-liligi (Income) | Mintaqa(CSA) (Region) | Mintaqa-da (Rank) |
|---|---|---|---|---|
| 27.4 | 82 | O'rtachadanpast (LM) | Markaziy va Janubiy Osiyo | 3* |

Xalqaro reyting agentliklari o'z tahlillarida 2016-yilda hokimiyatga Shavkat Mirziyoev kelishi bilan kelgusida iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash uchun qator iqtisodiy va institutsional islohotlar boshlanganini qayd etishgan edi. Prezident rahbarligida inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta'minlash, sud-huquq sohalarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlari oshishiga sabab bo'lmoqda. Xalqaro agentliklar vakillari O'zbekiston keyingi 3 yil ichida turli yo'nalishlarda reyting pog'onalaridan ko'tarila boshlaganini qayd etmoqdalar, xususan, so'nggi besh yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg'armasining "Iqtisodiy erkinlik" indeksida 52 pog'onaga, Jahon bankining "Logistika samaradorligi" indeksida 19 pog'onaga, "Biznes yuritish" indeksida 18 pog'onaga ko'tarildi, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – "Economist" jurnali O'zbekistonni 2019-yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat – "Yil mamlakati" deb e'tirof etdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi va xalqaro reyting agentlari tahlillariga ko'ra, pandemiya sinovlariga qaramasdan, 2021-yilda O'zbekiston dunyoning sanoqli davlatlari qatorida ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. Bunda davlat

1 O'zbekiston 2023-yil reytingida ilk bor TOP-3 ga kirdi.

va jamoat boshqaruv sohasidagi 20 ta yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlarni oshkor qilib borish amaliyoti joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etdi. “Iqtisodiy erkinlik” reytingida ham mamlakatimizning 26 pog'ona ko'tarilgani islohotlarimizning xalqaro maydondagi yana bir e'tirofi bo'ldi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, biz mamlakatimiz hududida qadim tarixda ham faol savdo aloqalari sodir bo'lib turganini ko'rishimiz mumkin. Bunga Qadimgi Baqtriya, Katta Xorazm va Sug'diyona davlatlari hududida bo'lgan savdo aloqalarini misol qilib keltirish mumkin. Amir Temur va Temuriylar davrida ayniqsa savdo-sotiq munosabatlari yaxshi rivojlandi.

Hozirgi kunimizda ham ertamizni o'ylab, yurtimiz haqida o'ylab qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar va qonunlar hamda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida ham O'zbekiston yangi marralarni ko'zlayotgani va mamlakatimiz o'z taraqqiyotida yangi bosqichga qadam qoyganidan darak beradi, bu islohotlar o'z navbatida mamlakat aholisining farovonligi va turmush darajasini yanada ko'tarishga qaratilgandir.

Prezidentimiz Mirziyoyev Sh.M ta'kidlaganlaridek, biz bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jahon bozorida o'z o'rnimizni saqlab qolish, mamlakat hududida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish va ichki bozorni himoya qilgan holda eksport va import operatsiyalarini yanada rivojlantirish uchun tinmay xarakatda bo'lishimiz, o'qib o'rganishimiz va asosiysi bor kuch va e'tiborimiz bilan yurt tinchligini saqlashimiz zarurdir. Chunki tinchlik bo'lgan joyda rivojlanish va o'sish bo'ladi.

Takliflar, tegishli davrda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tanqidiy baholash bo'yicha davlat tajribsini yanada rivojlantirish;

aholi, tadbirkorlik subyektlari, fermer xo'jaliklari, yoshlarni tashvishga solayotgan dolzarb muammolarni, shuningdek, hududning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan tizimli kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish ishchi guruhlarini joriy etish;

hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini va davlat, hududiy, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturlariga kiritishni davom ettirish va samarali kengaytirish;

Hisobotlarni eshitishga hududlarni rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatishning, shuningdek, sektorlar rahbarlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslari mas'uliyatini oshirishni institutsional takomillashtirish dolzarbdi.

### Foydalanilagan adabiyotlar ro'yxati


1. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO-2022) Global Innovation Index | What is the future of innovation-driven growth?-2022.
2. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) https://www.wipo.int/global_innovation_index/en/2021.
3. The Global Innovation Index (GII-2021): Who Will Finance Innovation?https://www.globalinnovationindex.org/Home.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-son Farmoni, 2020-yil 29-oktabr. https://lex.uz/docs/5073447
5. A.V.Vahobov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev —Jahon iqtisodiyoti va Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. “Baktria press” 2015.
6. A.V.Vahobov, Sh.I.Raxmanov, Sh.X.Xajibakiyev, X.A.Usmanova —Jahon iqtisodiyoti va Xalqaro iqtisodiy munosabatlar “Voris-nashriyot”, 2014.
7. Jahon iqtisodiyotiga integrasiya Ishmuxamedov.A.I. o'quv qo'llanma, 2004.
8. https://uza.uz/oz/posts/hududlarning-jadal-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlanishini-ta-minl-09-08-2017.

# INTELLEKTUAL VA INNOVATSION MULK HISOBINING DOLZARB MUAMMOLARI



**S.N.Farxodov**
TDIU Samarqand filiali 2-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar PhD M.Mardonov**
TDIU Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual va innovatsion mulk turlari, shuningdek, intellektual va innovatsion faoliyatning tavsifi ko‘rib chiqilgan. Intellektual va innovatsion mulk turlarini vujudga keltiruvchi mazkur faoliyat turlarini korxonalarning hisob va hisobot tizimida aks ettirish masalalarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan hal qilish yo‘llari hamda imkoniyatlari o‘rganilgan.

Kalit so’zlar: Intelliktual va innovatsion mulk, innovatsion faoliyat, innovatsion mahsulot.

Abstract: This article considers the types of intellectual and innovative property, as well as the description of intellectual and innovative activities. Ways and possibilities of solving the issues of reflecting these types of activities that create types of intellectual and innovative property in the accounting and reporting system of enterprises have been studied both theoretically and practically.

Key words: Intellectual and innovative property, innovative activity, innovative product.

Аннотация: В данной статье рассмотрены виды интеллектуальной и инновационной собственности, а также описание интеллектуальной и инновационной деятельности. Пути и возможности решения вопросов отражения этих видов деятельности, создающих виды интеллектуальной и инновационной собственности, в системе учета и отчетности предприятий изучены как теоретически, так и практически.

Ключевые слова: Интеллектуальная и инновационная собственность, инновационная деятельность, инновационный продукт.

## KIRISH

Ma’lumki, har qanday kishilik jamiyati ravnaqida intellektual va innovatsion mulk, mos ravishda, bu mulklarni vujudga keltiruvchi mazkur faoliyat turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Intellektual va innovatsion mulk turlari jamiyatning ilmiy, texnik, iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy va boshqa turlardagi salohiyatini o‘zida ifodalovchi boyliklar bo‘lib hisoblanadi. Ularning jamiyatni alohida olingan yacheykalari – korxona, tashkilot va muassasalari ravnaqidagi o‘rni ham beqiyosdir. Chunonchi, ushbu mulk turlari korxona, tashkilot va muassasalar uchun ularga katta foyda keltiruvchi manbalardan biri bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi intellektual va innovatsion mulk turlarini, shuningdek ularni vujudga keltiruvchi faoliyat turlarini buxgalteriya hisobining ham muhim obyektlari sifatida tavsiflashning maqsadga muvofiqligidan darak beradi. Biroq, yuqoridagi mantiqiy fikrlar umum tan olingan bo‘lsa-da, ko‘p sabablarga ko‘ra intellektual va innovatsion mulkni hamda ularni vujudga keltiruvchi intellektual va innovatsion faoliyat turlarini hozirgacha korxonalar hisob va hisobot tizimida aks ettirish masalalari ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘z yechimini to‘lig‘icha topmasdan qolmoqda. Quyida ushbu masalalarni hal qilish yo‘llari va imkoniyatlariga to‘xtalamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining alohida, o‘ziga xos obyektidir. “Intellekt” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “aql” ma’nosini beradi[1]. Agar ushbu so‘zni sof o‘zbek tilida ifoda etiladigan bo‘lsa, uni “Aqliy mulk”, deb atash mumkin. Ammo intellektual mulk xalqaro atama sifatida e’tirof etilayotganligi tufayli, bizning qonunlarimizda ham shunday atalayotganligi tufayli, uni aynan shunday atashni tavsiya qilamiz.

"Intellekt" atamasi o'zbek tilining izohli lug'atida ham keltirilgan. Unda ta'kidlanishicha "Intellekt (*lotin.* intellectus – aql, idrok, tasavvur)" [1] ma'nolarini anglatadi. Ushbu atamaga mazkur lug'atda ikkita izoh berilgan: "(1) kishining fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, zehn; (2) shunday aql-idrok, fahm-farosat egasi"[1]. Xuddi shunday izoh "Intellektual" atamasiga ham berilgan. "Intellektual (lot intellectus – aql-idrok, bilish; tushunish)", [1] degan ma'nolarni anglatadi. Bunga ham ikkita izoh berilgan "Ma'naviy ehtiyojlar bilan yashovchi yoki aqliy faoliyatning eng yuksak va murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi (shaxs) ...*ayniqsa, ilmiy, ya'ni intellektual kishilar...*" [2].

"Innovatsion faoliyat" atamasi negizida ham, ko'rinib turibdiki, avvalambor, **"innovatsiya"** so'zi, ushbu so'z negizining o'zida esa **"novatsiya"** so'zi yotadi. O'zbek tili lug'otiga bu so'zlar xorijiy tillardan kirib kelgan. Chunonchi, inglizcha **"innovation",** ruschasiga **"innovatsiya**" so'zi o'zbek tilida "kiritilgan yangilik, ixtiro"[3] so'zlarini anglatadi. Ushbu atamaga ham ikkita izoh berilgan: "1. *iqtisodiy* texnika va texnologiyaning yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar. 2. Ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanilishi [3]. Shuni e'tirof etish kerakki, innovatsiya so'zining o'zagini "novatsiya" so'zi tashkil qiladi. Bu **"Novatsiya",** so'zi lotincha **"novation"** so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida "yangilik, yangi tartib (rasm, odat, usul va h. k.)" [3] ma'nosida talqin etilgan.

Intellektual va inovatsion mulk hisobi doirasida MDH mamlakatlari olimlaridan R.Abdeyev, G.Vasilev, V.Golik, F.Gurov, D.Zabegalin, M.Zuyev, M.Ivchenko, T.Kozlova, I.Melyuxin, A.Prokofyev, Y.Putilova, Y.P.Golubkov, G.L.Bagiyevlar ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha fikrlar uchraydi.

Intellektual va inovatsion mulk hisobining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni A.Sh. Bekmurodov, A.A. Fattaxov, A. Soliyev, G.N. Axunova, Y.K. Qoriyeva, J.J. Jalolov, I.I. Ivatov, M.A. Ikramov, M.R. Boltabayev, M.S. Qosimova, Sh.Dj. Ergashxodjayeva va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxonalarning intelektual va innovatsion mulklari tasnifini o'rganish jarayonida statistik ma'lumotlar va nazariyalarni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Intellektual mulk, odatda, nomoddiy shaklga ega bo'ladi. Ammo uning mahsuli moddiylashib boradi. Intellektual mulk mahsulining moddiylashgan shakli iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatga joriy qilingan innovatsiyalarda, ya'ni yangi texnika va texnologiyalarda, yangi mahsulot va tovarlarda, ko'rsatiladigan moddiy xizmat turlarida namoyon bo'lishi mumkin. Moddiy bo'lmagan intellektual mulk mahsuli bo'lib yangi yaratilgan g'oya, yangi texnologiya, yangi xizmat turi, yangicha dasturiy ta'minotlar, loyihalar va boshqalar hisoblanadi.

Shuni e'tirof etish kerakki, moddiy shaklga ega bo'lmagan intellektual mulkni, boshqacha qilib, nomoddiy mulk deb ham atash mumkin. Intellektual faoliyat natijasida vujudga kelgan ushbu nomoddiy mulk, odatda, ko'char mulk toifasiga kiradi. Ya'ni, yaratilgan nomoddiy mulk bir joydan boshqa joyga, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga ko'chib yuradi.

Intellektual mulkning yaratuvchisi ham, iste'molchisi ham, obyekti ham inson hisoblanadi. Shuni e'tirof etish kerakki, boshqa boyliklar singari intellektual mulk ham oz yoki ko'p bo'lishi mumkin. Bu bevosita insonlarga ham tegishlidir. Biri intellektual boy kishi bo'lsa, ikkinchisi unga teng kela olmasligi mumkin. Ammo ushbu boylikning aniq o'lchovi hozircha ishlab chiqilgan emas. Biroq mamlakatning, millatning, jamoaning milliy salohiyatidan kelib chiqib intellektual boylikka baho berish mumkin.

Yuqoridagilarning barchasi, bizningcha, intellektual faoliyat va uning natijasi bo'lgan intellektual mulkni, shuningdek innovatsiya faoliyati hamda uning natijasi bo'lgan innovatsion mulkni makon va zamonda yuritiladigan buxgalteriya hisobining obyektlari sifatida tan olish uchun asos bo'la oladi. Bu, bizning fikrimizcha, obyektiv zarurat ham hisoblanadi. Shu bois ham, yuqorida e'tirof etilgan tushunchalarning har birining hisob obyektlari sifatidagi ta'riflarini ishlab chiqish, shuningdek, ularni buxgalteriya hisobi nazariyasi hamda amaliyotiga doir adabiyotlarga (darsliklar va o'quv qo'llanmalarga) kiritish zarur, deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, ularga buxgalteriya hisobi obyektlari sifatida quyidagicha ta'riflarni berish maqsadga muvofiqdir.

Intellektual (aqliy) faoliyat deyilganda yangi asar, g'oya, qarash, mahsulot, ish, xizmat turini yaratishga qaratilgan maqsadli xarakatlar majmuasi tushuniladi.

Intellektual mulk deganda, odatda, makon va zamonda olib boriladigan intellektual faoliyatning natijasida vujudga keladigan mulk tushuniladi.

Innovatsiya deyilganda jamiyatning turli yacheykalarida amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)ni, uning moddiy texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tadbiq etishga qaratilgan maxsus innovatsion faoliyat tushuniladi.

Innovatsion faoliyat deyilganda ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish va ishlarni bajarishga qaratilgan moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi gʻoyalar va ishlanmalarni yaratish, oʻzlashtirish va tadbiq etishga yoʻnaltirilgan jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Innovatsion mahsulot deyilganda innovatsion faoliyatni olib borish natijasida olingan yangidan barpo qilingan yoki tubdan takomillashtirilgan moddiy yoki nomoddiy mulk tushuniladi. Moddiy mulk shaklidagi innovatsion mahsulot boʻlib yangi texnika, yangi mahsulot, yangi tovar hisoblanadi. Nomoddiy mulk shaklidagi innovatsion mahsulot – bu yangi yaratilgan gʻoya, yangi texnologiya, yangi xizmat turi, yangicha dasturiy ta'minotlar, loyihalar va boshqalardir.

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, intellektual va innovatsion mulk turlari bir-biri bilan oʻzaro mustahkam bogʻliqdir. Ammo ularning yuzaga kelish evolyutsiyasiga nazar tashlaydigan boʻlsak, innovatsion mulk intellektual mehnatning mahsuli sifatida namoyon boʻladi. Shu bois ham ushbu mulklarning shakllanishi va ishlatilishi bilan bogʻliq jarayonlarning oʻzaro uzviy bogʻliqligini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).




1-rasm. Intellektual va innovatsion mulklarning shakllanishi va ishlatilishi bilan bogʻliq jarayonlar evolyutsiyasi

Demak, bunga erishish uchun, uning yaratuvchisi, iste'molchisi va subyekti boʻlgan insonga e'tiborni qaratish lozim boʻladi. Buni amalga oshirishning asosiy yoʻli ilmni rivojlantirish evaziga fan va texnikani yangilash gʻoyalarini ishlab chiqish, ularning yutuqlarini ishlab chiqarishga, xizmat koʻrsatish va ish bajarish kabi iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga tadbiq etishdir. Bu jarayonning uzluksizligi jamiyatning taraqqiyotini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Intellektual mulk va bu mulkni yaratilishiga qaratilgan intellektual faoliyatning **makoni** boʻlib jamiyatning aniq yacheykalari hisoblanadi. Bunday yacheykalar boʻlib ilmiy muassasalar, korxona va tashkilotlar, oilalar hamda yakka holda ijodiy mehnat qilayotgan jamiyat a'zosi (shaxs) hisoblanadi. Intellektual faoliyat jamiyatni ushbu yacheykalarining mehnat jamoalari yoki yakka a'zosi tomonidan olib boriladi. Mehnat jamolari yoki yakka shaxsning intellektual faoliyatida yaratilgan intellektual mulk, mos ravishda, mehnat jamoasi yoki yakka shaxsning intellektual mulki hisoblanadi.

Intellektual mulk va bu mulkni yaratilishiga qaratilgan intellektual faoliyatning **zamoni,** deganda bu mulk yaratilgan (vujudga kelgan) hamda uni yaratilishi (vujudga kelishi)ga qaratilgan intellektual faoliyat olib borilgan vaqt tushuniladi. Bunday vaqt boʻlib, odatda, aniq yil, chorak, oy hisoblanadi. Tan olish, baholash, oʻlchash va hisobga olish mezonlariga koʻra intellektual mulk va uni yaratilishiga qaratilgan faoliyat yuqorida sanab oʻtilgan hisobot davrlarida miqdor va sifat jihatdan oʻz tavsifini topadi.

Shuni ta'kidlash joizki, intellektual mulk va innovatsiyalar bir-biri bilan oʻzaro mustahkam bogʻliq. Ammo ularning yuzaga kelish evolyutsiyasiga nazar tashlaydigan boʻlsak, innovatsiya intellektual mehnatning mahsuli sifatida namoyon boʻladi. Demak, bunga erishish uchun, uning yaratuvchisi, iste'molchisi va subyekti boʻlgan insonga e'tiborni qaratish lozim boʻladi. Buni amalga oshirishning asosiy yoʻli ilmni rivojlantirish evaziga fan va texnikani yangilash gʻoyalarini ishlab chiqish, ularning yutuqlarini ishlab chiqarishga, xizmat koʻrsatish va ish bajarish kabi iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga tadbiq etishdir. Bu jarayonning uzluksizligi jamiyatning taraqqiyotini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan sharhlardan bir qancha xulosalar qilish mumkin.

Birinchidan, intellektual faoliyat yoki hozirgi zamonga mos keluvchi innovatsion faoliyat har qanday kishilik jamiyatini uzluksiz ravnaq toptirish uchun zarur bo'lgan faoliyat hisoblanadi. Ushbu faoliyatga asoslangan holda olib borilayotgan iqtisodiyotni "innovatsion iqtisodiyot", deb atash mumkin. Innovatsion iqtisodiyotning ijodkori inson va undan manfaatdori ham insondir. Yangi g'oyalar, qarashlar, yondashuvlar, eng zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslanmagan iqtisodiyotni "innovatsion iqtisodiyot" deb atab bo'lmaydi. Yangi g'oyalar, qarashlar, yondashuvlar, eng zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan "innovatsion iqtisodiyot", o'z navbatida, iqtisodiyotni yangilash, modernizatsiyalashni taqozo etadi. Hozirgi davrda bizning respublikamizda barpo etilayotgan iqtisodiyot, aynan, ushbu talablarga javob beradigan, ya'ni modernizatsiya qilinayotgan "innovatsion iqtisodiyot" hisoblanadi. Ammo hozirgi bosqichda joriy qilinayotgan yangi texnika va texnologiyalar asosan xorijdan olib kelinayotganlari hisobiga rivojlanmoqda. Haqiqiy innovatsion iqtisodiyotga erishish uchun yangi texnika va texnologiyalarni o'zimizda ishlab chiqishimiz lozim bo'ladi.

Ikkinchidan, intellektual mulk yoki hozirgi zamonga mos keluvchi innovatsion mahsulot har qanday kishilik jamiyatining o'ta muhim boyligi hisoblanadi. Yangi g'oyalar, qarashlar, yondashishlar, eng zamonaviy texnika va texnologiyalar ko'rinishidagi "innovatsion mahsulot" jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchli vositalardir. Jamiyatda yuz berayotgan yangilanish, modernizatsiya va rekonstruksiya jarayonlari ushbu "innovatsion mahsulot"ni kelgusida yanada ko'paytirishga imkon beradi. Bizda buni ta'minlaydigan strategiya ishlab chiqilgan. Ammo uni amalga oshirish jarayoni keng ko'lamli ishlarni bajarishni taqozo qiladi. Chunonchi, buxgalteriya hisobida innovatsion faoliyat va uning natijasi bo'lgan innovatsion mahsulot hisobini yuritishga mo'ljallangan turli schyotlar tizimini amaldagi me'yoriy hujjatlarga, xususan, 21-son BHMSga kiritishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining ikkinchi qismiga sharhlar. Sh jild. T.: "iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 1998. - B. 20.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J-II. Ye-M./Tahrir hayati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 216.
3. Ruscha – o'zbekcha lug'at. 2 tomlik.1-tom. – T.: "O'zbekiston milliy ensiulopediyasi", 1983. – B. 667.
4. Mardonov, Mamed. "EMPIRICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES IN UZBEKISTAN." Iqtisodiyot va ta'lim 23.Maxsus_son (2022): 539-544.
5. Уразов, Комил Бахрамович, and Мамед Шавкатович Мардонов. "Инновацион фаолият кўрсаткичларини статистик ҳисоботларда очиб бериш масалалари." DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR 155 (2021).
6. Mamed, Mardonov, and Toirov Masudjon. "OPPORTUNITIES TO IMPROVE THE ACCOUNT AND AUDIT OF EMPLOYEE INCOME IN ENTERPRISES." The Journal of Economics, Finance and Innovation (2023): 868-880.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.